



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдулаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхураевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


1. Юлдуз Эргашева ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ II МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	5
2. Nilufar Djurayeva O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDAGI TUB ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI..	13
3. Камола Саипова НАЦИОНАЛЬНО-ГОСУДАРСТВЕННОЕ РАЗМЕЖЕВАНИЕ И ЕГО ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА УЗБЕКСКОЙ ССР.....	26
4. Отабек Алимардонов ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ ТЎРТ КВАДРАНТИ (ЧОРАК) ПАРАДИГМАСИ: НАЗАРИЙ ТИПОЛОГИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	34
5. Zilola Abdualimova SOVET PLAKATLARI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA (MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISH MISOLIDA).....	45
6. Шерзод Бахранов ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ПАХТАЧИЛИК ИLMИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН.....	52
7. Abduvali Berdiyev SHARQIY TURKISTON BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA QO‘QON KARVON YO‘LLARINING O‘RNI VA ULARNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA‘SIRI (18–19-ASRLAR).....	58
8. Икрамжон Исмаилов ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ВИЛОЯТЛАРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ МУАММО ҲАМДА ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй).....	69
9. Земфира Курбанова ЦИКЛЫ ПОМИНОВЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДАХ КАРАКАЛПАКОВ И ИХ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ.....	80
10. Tamara Ro‘ziyeva MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING “TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA TURKISTON JAMIYATI HAQIDA.....	87
11. Sarvinoz Toshmurodova MILLIY SPORT TIZIMI VA OLIMPIYA HARAKATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.....	92
12. Elyor Hojamberdiyev TURON ARXELOGIYASINI O‘RGANISHDA YONDASHUV VA TADQIQOT USULLARI (ERON OLIMLARI MISOLIDA).....	99



Zilola Mamatkarimovna Abdualimova,
GulDU tadqiqotchisi
abdualimovazilola92@gmail.com

SOVIET PLAKATLARI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA (MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISH MISOLIDA)

For citation: Zilola M. Abdualimova. SOVIET POSTER AS A PROPAGANDA TOOL (IN THE EXAMPLE OF MIRZACHO‘L’S ASSUMPTION). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 7, pp.45-51

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16755274>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sovet davrida mafkuraviy targ‘ibotning samarali vositalaridan biri bo‘lgan plakatlarining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi jarayonini aks ettirgan plakatlar orqali ularning ijtimoiy ongga ta‘sir ko‘rsatish usullari, axborotni tez va aniq yetkazish imkoniyatlari yoritilgan. Aniq misollar orqali plakatlarining hukmron partiya mafkurasi va uning siyosiy ko‘rsatmalarini aks ettiruvchi targ‘ibot vositasi sifatida tutgan o‘rni va ijtimoiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: plakat, vizual manba, Mirzacho‘l, o‘zlashtirish, cho‘lquvar, targ‘ibot, vizual targ‘ibot, tashviqot, O‘zdamnashr.

Зилола Маматкаримовна Абдуалимова,
исследователь ГулДУ
abdualimovazilola92@gmail.com

СОВЕТСКИЙ ПЛАКАТ КАК СРЕДСТВО ПРОПАГАНДЫ (НА ПРИМЕРЕ ОСВОЕНИЯ ГОЛОДНОЙ СТЕПИ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значение плакатов, которые были одним из эффективных средств идеологической пропаганды в советское время, как исторического источника. Через плакаты, отражающие процесс освоения Голодной степи, освещаются их методы воздействия на общественное мнение, способность быстро и точно доносить информацию. На конкретных примерах раскрывается роль плакатов как пропагандистского инструмента, отражающего идеологию правящей партии и ее политические установки, и их значение в формировании общественного сознания.

Ключевые слова: плакат, визуальный источник, Голодная степь, освоение, пропаганда, наглядная пропаганда, агитация, политический плакат, Госиздательство

Zilola M. Abdualimova,
GulSU researcher
abdualimovazilola92@gmail.com

SOVIET POSTER AS A PROPAGANDA TOOL (IN THE EXAMPLE OF MIRZACHO'L'S ASSUMPTION)

ABSTRACT

This article analyzes the significance of posters, which were one of the effective means of ideological propaganda in Soviet times, as a historical source. Through posters reflecting the process of development of the Hungry Steppe, their methods of influencing public opinion, the ability to quickly and accurately convey information are highlighted. Specific examples reveal the role of posters as a propaganda tool reflecting the ideology of the ruling party and its political guidelines, and their significance in shaping public consciousness.

Index Terms: poster, visual source, Hungry Steppe, development, propaganda, visual propaganda, agitation, political poster, State Publishing House

Kirish (Introduction)

1950-1960-yillarda Mirzacho'lning o'zlashtirilishi O'zbekiston hududida amalga oshirilgan eng yirik xo'jalik-siyosiy loyihalardan biri bo'ldi. Umumittifoq darajasidagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish siyosatining maqsadi – yangi sug'oriladigan maydonlarni yaratish, paxta yetishtirish hajmini oshirish va aholini yangi yerlarda doimiy yashashga jalb qilishdan iborat edi.

Ushbu dasturni amalga oshirishda mafkuraviy ta'minot va axborot-targ'ibot ishlari muhim o'rin tutgan. Targ'ibot plakatlari bu jarayondagi asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilgan. Sovet siyosiy madaniyatida vizual ommaviy axborot vositalari faqat ma'rifiy va safarbarlik vazifalarini bajaribgina qolmay, balki kommunistik mafkura va partiya ko'rsatmalariga muvofiq yangi dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim o'rin tutgan.

Plakat – (nemischa-plakat, fransuzcha-placard-e'lon, afisha) grafika turi bo'lib, katta varaqqa ishlangan tasviriy san'at asaridir. Unga qisqa matn ilova qilinadi, tashviqot, reklama, informatsiya va o'quv-ta'lim maqsadlariga xizmat qiladi [6, B.89]. Olisdan ko'zga yaqqol tashlanishi, o'ta ta'sirchanligi, ommabopligi, tasvirining kinoyalarga boyligi, hammabop ramzlarning ishlatilishi, turli hajmdagi shakllarni qiyoslash, umumlashma tasviriy shakllardan foydalanish kabi o'ziga xos badiiy vositalari bilan boshqa axborot manbalaridan farq qiladi. Bunda shrift va matnning joylanishi, shartli ranglar (yorqin bezaklar) qo'llanilishi muhim rol o'ynaydi. Tasviriy vosita sifatida ba'zan fotografiya (mustaqil tarzda yoki rangtasvir bilan) ishlatiladi.

Sovet targ'ibot plakatlari mazmuniga ko'ra bir necha turga bo'lingan: sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy siyosiy, harbiy mavzudagi plakatlar. Shuningdek, vazifasiga ko'ra ham ularni bir necha turga ajratish mumkin: siyosiy, satirik, reklama, yo'riqnoma, shior-chaqiriq, tabiiy-ilmiy targ'ibot va boshqa vazifalarni bajaruvchi plakatlar. Targ'ibot plakatlari ijtimoiy yoki siyosiy g'oyalarni targ'ib qilishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Bir qancha tadqiqotchilar sovet davrida plakatlarning targ'ibot vositasi sifatidagi roli va ahamiyati masalasiga murojaat etishgan. Jumladan, rossiyalik tadqiqotchilar V. Bobrovnikov, M. Filatov tomonidan sovet davrida Sharq respublikalari uchun chop etilgan plakatlarning albom-katalogini tayyorlangan [3].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan yozilgan maqolalarda tarixiy emas, asosan san'atshunoslik, sotsiologiya nuqtayi nazaridan, ijtimoiy-madaniy kontekstda tadqiq qilingan [10,11]. L. Qodirovaning maqolasida sovet plakatlarida foydalanilgan o'zbek xotin-qizlari obrazining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)

Vizual manbalarni tadqiq qilish alohida yondashuvni talab qiladi, chunki ularda axborot matndagidan boshqacha ifodalanadi. Tadqiqotda qo'llanilgan kontekst tahlil vizual manba

yaratilgan tarixiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy kontekstni ochib berish imkonini beradi. Ikonografik tahlil esa plakatlarda qo'llanilgan ramzlar, obrazlar va belgilarni tahlil qilishda yordam beradi. Semiotik tahlil plakatlardagi vizual belgilar mazmunni qay tariqa shakllantirishi va ular tomoshabinning tafakkuriga qay tarzda ta'sir ko'rsatishini ochib beradi. Diskurs tahlil plakatlardagi tasvirlarning hokimiyat, identiklik kabi ma'lum bir diskurslar bilan bog'liqligini tahlil qilish imkonini beradi. O'z davridagi mafkuraning targ'ibot quroli bo'lgan plakatlarni vizual manba sifatida tadqiq etishda tanqidiy tahlildan foydalanishni talab qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Mirzacho'ning keng miqyosda o'zlashtirilishi sovet hukumatining XX-asrning 50-60-yillarida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish asosida paxta va g'alla yetishtirishni ko'paytirish rejalari doirasida amalga oshirildi. 1956-yil 6-avgustda "O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRda Mirzacho'ning qo'riq yerlarini sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilinganidan keyin, paxtachilik xo'jaliklari tashkil etish ayniqsa keng tus oldi.

Agrotexnika va muhandislik ishlari bilan bir qatorda, sovet hukumati mavjud resurslarini ushbu jarayonlarga safarbar etish hamda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish uchun faol vizual targ'ibot olib borgan. Ushbu targ'ibot ishlarida plakatlardan samarali foydalanilgan. Plakatlar nafaqat o'z davrining ifodasiga, balkim uning harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylangan.

Sovet davri plakatlari shunchaki bezak elementi bo'lmagan, ularga kommunistik mafkurani ommaga yetkazish va ta'sir ko'rsatish vazifasi yuklangan. Mirzacho'ni o'zlashtirish davrida chop etilgan plakatlar ham quyidagi vazifalarni bajargan:

- 1) Qahramon mehnatkashlar obrazini shakllantirish plakatlarda tasvirlangan yoshlar cho'lni zabt etuvchilar, kashfiyotchilar sifatida talqin qilingan;
- 2) Mutaxassislarni jalb etish-plakatlarda yoshlar cho'lni o'zlashtirishga, traktorchi, agronom, quruvchi sifatida faol mehnat qilishga chorlangan;
- 3) Cho'lni o'zlashtirish siyosatining muvaffaqiyatiga ishonchni mustahkamlash – plakatlarda serhosil dalalar, sug'orish inshootlari, yangi barpo etilgan kolxoz va sovzozlardagi yangi uylardagi mamnun oilalar aks ettirilgan;
- 4) Sotsialistik orzuni vizuallashtirish – Mirzacho'ning o'zlashtirilishi tabiat ustidan g'alaba, partiya irodasining timsoli sifatida gavdalandirilgan.

Mirzacho'ni o'zlashtirish mavzusiga oid sovet plakatlari nafaqat targ'ibot vositasi, balkim puxta o'ylangan g'oyaviy stretagiya bo'lgan. Ularning maqsadi – shunchaki axborot berish emas, ushbu jarayon ishtirokchilarida partiya maqsadlariga bo'ysundirilgan tafakkurni shakllantirish edi. Jumladan, "Lenin vasiyatlarini asosida Mirzacho'ni bog'u bo'stonga aylantiramiz" nomli plakat 1957-yil nashr qilingan bo'lib, unda 1918-yil 17-mayda Lenin tomonidan imzolangan "Turkistonda sug'orish ishlariga 50 million so'm pul ajratish va sug'orish ishlarini tashkil qilish to'g'risida"gi dekret dan parcha keltirilgan: "Rossiya to'qimachilik sanoatini paxta bilan ta'minlashni oshirish yuzasidan tuzilgan ish plani tasdiqlansin. Bu plan quyidagi dasturlarni o'z ichiga oladi: Samarqand oblasti Xo'jand uyezdidagi, Mirzacho'l yerlaridan 500 ming desyatinasini sug'orish" (1-rasm). Plakatlardagi bu kabi matnlar sovet hokimiyati tomonidan olib borilayotgan siyosatning izchilligiga, berilayotgan va'dalarning barchasi bajarilishiga oddiy xalqni ishonitirishga qaratilgan edi.



1-rasm. Lenin vasiyatlarini asosida Mirzacho'ni bog'u-bo'stonga aylantiramiz. Rassom: Rossal A.S. Toshkent: O'zdavnashr, 1957



2-rasm. Mirzacho'lni o'zlashtiraylik! Rassom: Sherstnev N. Toshkent: O'zdavnashr, 1958

1950-70-yillar oralig'ida chop etilgan ko'plab plakatlardan Mirzacho'lni o'zlashtirilishiga undash, uni gullagan vodiya aylantirishga chaqiriqlar joy olgan: "Mirzacho'lni gullagan vodiya aylantiramiz!" Rassom A.M. Venediktov. – Toshkent: O'zdavnashr, 1950; Превратим Голодную степь в цветущий край. Художник А.М. Вenediktov. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1950; Yangi yerlarda. На новых землях. Г.Перменов fotosi. – Toshkent: Qizil O'zbekiston, Pravda Vostoka birlashgan nashriyoti, 1953; Превратим Голодную степь в цветущий оазис. Художник А.С. Россаль. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957; Mirzacho'l kommunizmga xizmat qiladi! Голодная степь служит коммунизму! – Toshkent, 1964; Besh yillikda 500 000 gektar yangi yerni o'zlashtiramiz. Rassom. N.Sherstnev. – Toshkent: O'zbekiston, 1968; Влага в пустыне, сады в степи, труд, воедино сплотивший нас – это, все звенья в одной цепи, Ленина выполненный наказ. Художник Н. Взьянконская, Н. Василькин. Фото: М. Альперт, В. Сваричевский. – Ташкент: Узбекистан, 1970; Yangi yerlarni toboro ko'proq o'zlashtiraylik. Продолжить освоение новых земель. Рассом Д. Махотин. – Toshkent: O'zbekiston, 1982; Qo'riq – bizning maskanimiz! Рассом N. Galiev. – Toshkent: O'zbekiston, 1979 va h.k [8,9].

SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1946-yil 2-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston SSRda paxtachilikni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi maxsus qarorida O'zbekistonda 4-besh yillikda paxta yetishtirishni 2,5 baravar ko'paytirish vazifasi qo'yildi. Mazkur qarorga muvofiq yangi o'zlashtirilgan yerlarga, shu jumladan, Mirzacho'lga aholini ko'chirish harakati yanada tezlashtirildi. Qarorni bajarish bo'yicha ishlab chiqilgan rejada viloyat va tuman komissiyalariga aholi zich yashaydigan hududlarni belgilash va ulardan yangi o'zlashtirilgan yerlarga aholini ko'chirish belgilab berildi. Belgilangan reja asosida yangi tashkil etilayotkan sovxozlarga 1947-yilda 1863 ta kolxozchi oilasi bilan, 1950-1952-yillar mobaynida esa 3986 oila ko'chirib keltirildi. Mirzacho'lga, asosan, Farg'ona vodiysi, Samarqand va Jizzax viloyatlarining tog'li hududlarida yashab, doimiy ish bilan band bo'lmagan aholining bir qismi ko'chirildi [1, B.316]

Mirzacho'lda tashkil topayotgan yangi xo'jaliklarni ishchi kuchi va mutaxassislar bilan ta'minlashga doir targ'ibot ishlari muntazam kuchaytirib borildi. Aholini cho'lni o'zlashtirish jarayoniga safarbar etish mavzusiga bag'ishlangan plakatlar O'zSSR Ministrlar Soveti qoshidagi "Ko'chirish va ishchilarni ishga olishni tashkil etish bosh boshqarmasi"ning buyurtmasiga ko'ra tayyorlangan. Bunga misol qilib quyidagi plakatlarni ko'rsatish mumkin: Mirzacho'l va Markaziy Farg'onadagi yangi sug'orilgan yerlarda tashkil qilingan sovxoz va kolxozlarga ko'chib boringiz. Rassom N. Sherstnev. – Toshkent: O'zdavnashr, 1960; Переселяйтесь в колхозы и совхозы для освоения новых земель! Художник В. Котлов. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959; Переселяйтесь в совхозы и колхозы, организованные на землях нового орошения Голодной степи и центральной Ферганы. Художник Н. Шерстнев. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1960; Yangi yerlar cho'lquvarlarni chorlaydi. Rassom A. Balkanov. O'zSSR mehnat bo'yicha davlat komiteti. – Toshkent: nashriyotsiz, 1979; Освоение Голодной степи – дело рук твоих, молодежь! Худож. В. Бреице. Текст М. Ушакова [8,9].



3- rasm. Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Surxondaryo oblasti va Qoraqalpoq ASSRda yangi o'zlashtirilayotgan yerlardagi kolxoz va sovxozlarga ko'chib boringiz! Toshkent: O'zdavnashr, 1958.



4-rasm. Bu yerda sovxoz bo'ladi! Mirzacho'lga qay'iy hujum boshlaymiz! Rassom. A.S. Rossal-Voronov.

Yangi o'zlashtirilayotgan yerlarga aholini ko'plab jalb etish maqsadida ko'chib boruvchilarga beriladigan imtiyozlar, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlashga doir chora-tadbirlar ham plakatlar yordamida ham yoritilib borilgan. Jumladan, 1958-yil Toshkentda chiqarilgan "Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Surxondaryo oblasti va Qoraqalpog'iston ASSRda yangi o'zlashtirilayotgan yerlardagi kolxoz va sovxozlarga ko'chib boringiz!" deb nomlangan plakatda yangi yerlarga ko'chib boruvchi oilalarga ko'chib borgan hududiga ko'ra 3, yoki 4 yil mobaynida qishloq xo'jaligi soliqlaridan ozod qilinishi hamda Mirzacho'lga kelgan oilalarning oila boshlig'iga 600 so'mdan va oila a'zolarining har biriga 200 so'mdan naqd pul berilishi ko'rsatilgan (3-rasm). Bundan maqsad esa qo'riq yerlarni ham aholi gavjum hududlardan biriga aylantirish va yangi manzilgohlar yaratib, paxta dalalarini kengaytirish edi.



5-rasm. Yoshlar, yangi yerlarga!
Rassom A.S. Rossal.



6-rasm. Yangi yerlarni o'zlashtirayotgan kolxoz va sovxozlarga ko'chib boringiz!
Rassom: B. Kotlov. Toshkent: O'zdavnashr 1959.

Mirzacho'lni o'zlashtirishga otlangan cho'lquvarlarni asosan yoshlar tashkil etgan. Komsomol tashkilotlari ko'ngilli yoshlarni qo'riq yerlarga jalb etish borasida katta ishlarni amalga oshirgan. Ba'zi yoshlar romantika tufayli, boshqalari mustaqillikka intilish sabab cho'lga yo'l olgan, ammo ularning barchasini mamlakatga yordam berish istagi birlashtirgan.

Shu sababdan, plakatlarda aks etgan obrazlar orasida aynan komsomol yigit-qizlar qiyofasi ko'proq uchraydi. Ular yoshlarni yirik sotsialistik loyihada ishtirok etishga chorlash bilan bir qatorda, shu orqali o'z hayotlarini yaxshilashlariga ham ishora bergan. Biroq, yangi o'zlashtirilgan yerlarda yaratilgan sharoit har doim ham va'da berilganidek bo'lmagan.

O'zbekiston kinofotofono hujjatlari milliy arxividan olingan fotosuratda 1957-yilda yangi tashkil etilgan Yangiyer shahrida ekskavatorchi Ivan Bondaryov va uning rafiqasi Galina xonadonida tug'ilgan birinchi chaqaloq Viktor hamda ushbu oila yashagan palatka tasvirlangan. Yana bir fotolavhada qo'riqqa borgan insonlar istiqomat qilgan vagonlar tasvirlangan. Cho'lquvarlar plakatlarda tasvirlangan qulay sharoitlarda emas, dastlab chayla, palatka va yerto'lalarda, yashash uchun noqulay bo'lgan muhitda kun kechirishgan.



7-rasm. Mirzacho'lga dunyoga kelgan ilk chaqaloq. Ekskavatorchi Ivan Bondaryov va



8-rasm. Quruvchilar yashashi uchun vagonlardan iborat yotoqxona. 1957 yil.

uning rafiqasi Galina, o'g'li Viktor bilan. 1957- Yangiyer shahri. O'zR KFFX MA Fotobo'lim yil. Yangiyer shahri. O'zR KFFX MA 0-41662. Fotobo'lim 1-16648

Insonlarning fidokorona mehnati tufayli bora-bora cho'lning qiyofasi o'zgarib borgan, bu jarayon plakatlarda ham namoyon bo'lgan: Cho'l chekinmoqda. Fotoplakat. Tuzuvchi M. Xakimov. Rassom L. Sharifjonov, A. Anshteyn fotosi; Cho'llar chiroy ochadi. [Mirzacho'lni o'zlashtirilishining 25 yilligiga] Fotoplakat. Tuzuvchi M.Safarov, F.Yoqubov fotosi; Cho'ldagi bo'ston. (Jizzax oblasti Do'stlik rayonidan Qosim Raximov nomli kolxoz). Fotoplakat. Tuzuvchi M.Safarov, A. To'raev fotosi, 1983.

Mirzacho'lni o'zlashtirishning birinchi bosqichida (1956-1961), asosan, magistral kanallari, kollektor-drenajlar hamda yirik suv xo'jaligi obyektlari qurishga, shuningdek, binokorlik materiallari sanoat bazalarini barpo etishga katta e'tibor qaratildi. Mirzacho'lda suv xo'jaligi qurilishi ishlarini bajarishni boshqarish hamda qo'riq yerlarni o'zlashtirishda ishtirok etayotgan turli vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida O'zSSR Ministrlar Soveti huzurida "Glavgolodnostepstroy" Bosh boshqarmasi tashkil qilindi.

Mirzacho'lning O'zbekiston hududidagi 200 ming gektar qo'riq yerni sug'orish va o'zlashtirish, ilgari o'zlashtirilgan 100 ming gektardan ziyodroq maydonning sug'orish tarmoqlarini qaytarish uchun uzunligi 150 km bo'lgan markaziy Mirzacho'l kanalini, uzunligi 90 km bo'lgan janubiy Mirzacho'l kanali barpo etildi. Kirov nomidagi kanalni 200 kubometrdan 400 kubometrgacha suv sig'adigan qilib qayta qurildi. 1962-yilda ittifoqning eng yirik inshootlaridan biri bo'lgan, quvvati 40 ming kilovvatni tashkil etgan Mirzacho'l gidroenergiyastansiyasi ishga tushiriladi.

Mirzacho'lni suv bilan ta'minlash masalasi, suv inshootlarining barpo etilishi plakatlarda ham o'z aksini topgan. Ularda "Mirzacho'lni suvga serob qilaylik!" (Agitplakat. Rassom. A.S. Rossal. – Toshkent: O'zdavnashr, 1961) kabi chaqiriqlar yangragan. "Suv-hayot" fotoplakatida Jizzax Bosh nasos stantsiyasining qurilishi tasvirlangan [9,193-194].



Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sovet hukumatining o'zlashtirishga oid siyosatida ro'y bergan har qanday o'zgarishlar plakatlarda o'z aksini topgan. Mamlakatda ro'y bergan murakkab ijtimoiy va madaniy qayta qurish tufayli targ'ibot vositasi bo'lgan plakatlarning shakllari, ularning mazmun-mohiyati ham o'zgarib borgan.

Plakatlarni o'rganishda ularning kontekst tahliliga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, sovetlarning yangi yerlarni o'zlashtirish siyosatining negizida paxta dalalarini kengaytirish va bu yerlarda arzon ishchi kuchlarini ko'paytishga intilish yashiringan edi. Shunga qaramasdan, ushbu siyosat ko'chirilganlar hayotida katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Plakatlarda har ikki holat aks etgan bo'lib, ular sovetlarning tajovuzkor siyosatini umuminsoniy qadriyatlar targ'iboti bilan umumlashtira olgan.

Kuchli, intizomli, partiyaga sadoqatli cho'lquvar obrazini yaratishda, ularga g'oyaviy jihatdan ta'sir ko'rsatishda plakatlar muhim rol o'ynadi. Ko'rgazmali targ'ibot haqiqatdan ham minglab yoshlarni yangi yerlarni o'zlashtirishda ishtirok etishga ruhlantirishga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzacho'lni o'zlashtirishga bag'ishlangan plakatlar muhim vizual manba bo'lib, sovet davrida aholini qay tariqa qo'riq yerlarga jalb qilinganligi, o'z davrining estetikasi va mafkuraviy ta'sir maqsadlarini o'zida mujassam etgan noyob madaniy merosdir.

Plakatlar Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixining vizual xronikasini qayd etibgina qolmay, balki kollektiv ongni faol ravishda shakllantirishga xizmat qilgan. Bugun bu plakatlarga nazar tashlar ekanmiz, biz faqatgina targ'ibot vositasini emas, balki butun bir avlodning orzu-umidlari, hatto cho'lni ham iroda kuchi va jamoaviy mehnat bilan gullab-yashnagan yurtga aylantirish mumkinligiga ishongan davrning o'ziga xos ko'zgusini ko'ramiz.

Iqtiboslar/Сноски/References:

- 1) Davletov R. 1946-1980-yillarda Mirzacho'l hududidagi migratsion jarayonlar // Жамият ва инновациялар. – 2022. – №11. – Б.315-322.
- 2) Qodirova L.B. Sovet plakatlarida o'zbek xotin-qizlari obrazi // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 5 Issue: 02 | 2025. – В.197-211.
- 3) Бобровников В., Филатова М. Плакат Советского Востока 1918–1940. – М.: Фонд Марджани, 2013. – 318 с.
- 4) Жиззах яшнайти // Ўзбекистон хотин-қизлари. – 1956. – №.11. – Б.9
- 5) Тошпўлатов Н. Мирзачўл – Гулистон бўлади // Ўзбекистон хотин-қизлари. – 1956. – №10. – В.16-18
- 6) Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.7. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат миллий нашриёти, 2003. – 704 б.
- 7) Ўзбекистон ССР матбуот солномаси. – Тошкент: 1971. – №6. Сатирик плакатлар. – В.38.
- 8) Ўзбекистон ССР тасвирий нашрлари (1926-1964). – Тошкент: ЎЗССР Давлат китоб палатаси, 1987. – 224 б.
- 9) Ўзбекистон ССР тасвирий нашрлари (1965-1985). – Тошкент: ЎЗССР Давлат китоб палатаси, 1986. – 376 б.
- 10) Хусанов Н. Жамиятда плакатнинг ўрни // Ўтмишга назар. – 2021. – 3-махсус сон. – Б. 647-653.
- 11) Эгамов А. Иккинчи жаҳон уруши йилларида тарғибот-ташвиқот плакатларининг ўрни // Санъат. Арт. Искусство. – 2021. – №1. – Б. 40-42.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000